

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA VATANPARVARLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGINI EKSPERIMENTAL TEKSHIRISH

Xamidov Amin Abdulloevich

T.N. Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari milliy ilmiy-tadqiqot instituti
Qoraqalpog'iston filiali, mustaqil tadqiqotchi.

e-mail: xamidov.amin@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-5959-4236>

Annotatsiya.

Maqolada yuqori sinf o'quvchilarida vatanparvarlik sifatlarini raqamli ta'lim muhiti sharoitida shakllantirishga qaratilgan mualliflik pedagogik modeli va metodikasining samaradorligi tajriba-sinov ishlari asosida tahlil qilinadi. Eksperiment Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ikkita umumta'lim maktabida 92 nafar o'quvchi ishtirokida olti oy davomida tashkil etildi. Tadqiqotda kognitiv, emotsional-qadriyatli va faoliyatli-xulqiy komponentlar bo'yicha diagnostika o'tkazildi. Yakuniy natijalar Styudent t-mezoni ($t = 8,21$; $p < 0,05$), Pirson χ^2 mezon va Cohen effekti hajmi ($d = 1,72$) orqali tasdiqlandi. Olingan dalillar raqamli vositalarni tarbiyaviy jarayonga maqsadli integratsiya qilish o'quvchilarning vatanparvarlik sifatlarini rivojlantirishda yuqori pedagogik samara berishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik sifatleri, raqamli ta'lim muhiti, pedagogik model, yuqori sinf o'quvchilari, tajriba-sinov, statistik tahlil, milliy qadriyatlar.

ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ ПРОВЕРКА ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПАТРИОТИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Хамидов Амин Абдуллоевич

Каракалпакский филиал Национального научно-исследовательского института педагогических наук Узбекистана имени Т.Н. Кары-Ниязи, независимый исследователь.

Аннотация.

В статье анализируется эффективность авторской педагогической модели и методики формирования патриотических качеств у учащихся старших классов в условиях цифровой образовательной среды. Эксперимент проводился в течение шести месяцев в двух общеобразовательных школах Республики Каракалпакстан с участием 92 учащихся. Диагностика была организована по когнитивному, эмоционально-ценностному и деятельностно-поведенческому компонентам. Итоговые результаты подтверждены t-критерием Стьюдента ($t = 8,21$; $p < 0,05$), критерием χ^2 Пирсона и величиной эффекта Козна ($d = 1,72$). Полученные данные свидетельствуют о высокой педагогической эффективности целенаправленной интеграции цифровых средств в воспитательный процесс.

Ключевые слова: патриотические качества, цифровая образовательная среда, педагогическая модель, старшеклассники, экспериментальная проверка, статистический анализ, национальные ценности.

EXPERIMENTAL VERIFICATION OF THE PEDAGOGICAL EFFECTIVENESS OF FORMING PATRIOTIC QUALITIES IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Xamidov Amin Abdulloevich

Karakalpakstan Branch of the T.N. Qori Niyoziy National Research Institute of Pedagogical Sciences of Uzbekistan, Independent Researcher.

Abstract.

The article analyzes the effectiveness of the author's pedagogical model and methodology for forming patriotic qualities in high school students within a digital educational environment. The experiment was conducted for six months in two general education schools of the Republic of Karakalpakstan with the participation of 92 students. The diagnostics covered cognitive, emotional-value and activity-behavioral components. The final results were confirmed by Student's t-test ($t = 8.21$; $p < 0.05$), Pearson's chi-square test and Cohen's effect size ($d = 1.72$). The findings prove that purposeful integration of digital tools into educational and upbringing activities has a significant pedagogical effect on the development of patriotic qualities.

Keywords: patriotic qualities, digital educational environment, pedagogical model, high school students, experimental verification, statistical analysis, national values.

Kirish. Zamonaviy O'zbekiston ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, Vatanga sadoqat, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollikni shakllantirishdan iborat. Ushbu vazifa "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir normativ-huquqiy hujjatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida belgilangan [1; 2; 3]. Shu bois vatanparvarlik tarbiyasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Bugungi kunda o'quvchilarning axborot qabul qilish manbalari, muloqot shakllari va ijtimoiy faolligi tobora ko'proq raqamli muhit bilan bog'lanmoqda. Raqamli resurslar dars jarayonida bilim berish vositasi bo'libgina qolmay, o'quvchining qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi, muloqot madaniyati va ijtimoiy xulqiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli raqamli ta'lim muhitining tarbiyaviy imkoniyatlarini ilmiy asosda aniqlash, ularni vatanparvarlik tarbiyasi mazmuni bilan bog'lash hamda pedagogik samaradorligini eksperimental tekshirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Amaldagi pedagogik tajribada vatanparvarlik tarbiyasi ko'pincha an'anaviy ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, suhbatlar, uchrashuvlar va sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali olib boriladi. Raqamli vositalar esa aksariyat hollarda faqat ta'limiy maqsadlarda, ya'ni mavzuni tushuntirish, test olish yoki masofaviy topshiriqlarni tashkil etish uchun qo'llaniladi. Natijada tarbiya va raqamlashtirish o'rtasidagi pedagogik integratsiya yetarli darajada yo'lga qo'yilmaydi. Aniqlovchi tajriba natijalari ham bu holatni tasdiqlaydi: 800 nafar yuqori sinf o'quvchisi o'rtasida o'tkazilgan dastlabki diagnostikada vatanparvarlik sifatleri yuqori darajada shakllangan o'quvchilar ulushi 14,5 foizni tashkil etgan, eng past natija esa faoliyatli-xulqiy komponentda kuzatilgan.

Mazkur maqolaning maqsadi — yuqori sinf o'quvchilarida vatanparvarlik sifatlarini raqamli ta'lim muhiti sharoitida shakllantirishga mo'ljallangan mualliflik pedagogik modeli va metodikasining samaradorligini tajriba-sinov ishlari asosida tekshirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ekvivalent tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirish, pedagogik modelni olti oy davomida amaliyotga joriy etish, o'zgarish dinamikasini diagnostika qilish hamda natijalarni matematik-statistik usullar yordamida asoslash vazifalari belgilandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Vatanparvarlik tarbiyasi pedagogika fanida ko'p qirrali masala sifatida talqin etiladi. Klassik yondashuvlarda vatanparvarlik shaxsning Vatanga muhabbati, milliy qadriyatlarga hurmati, fuqarolik burchini anglashi hamda jamiyat manfaatleri yo'lida faol bo'lishga tayyorligi bilan izohlanadi. V.A. Suxomlinskiy, V.A. Datskiy va A.D. Soldatenkov tadqiqotlarida vatanparvarlikning ma'naviy-axloqiy, hissiy va faoliyatli jihatlari chuqur yoritilgan [9; 10; 11]. Biroq ushbu ishlarda raqamli muhitning tarbiyaviy omil sifatidagi ta'siri maxsus tadqiq etilmagan.

O'zbekiston pedagogikasida M. Quronov, U. Mahkamov, R. Mavlonova va N. Taylaqov ishlarida vatanparvarlik tarbiyasining milliy-ma'naviy asoslari, o'quvchilar ongida tarixiy xotira va milliy g'ururni shakllantirish, oilaviy va maktab tarbiyasi uzviyligi masalalari yoritilgan [4; 5; 6; 7]. Ushbu tadqiqotlar mazkur maqola uchun nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ayni paytda raqamli texnologiyalar ta'sirida o'quvchilarning qadriyatlarga munosabati, ijtimoiy faolligi va tarbiyaviy tajribasini qayta ko'rib chiqish zarurati mavjud.

Ta'limni raqamlashtirish bo'yicha xorijiy tadqiqotlarda M. Prensky tomonidan ilgari surilgan "digital natives" konsepsiyasi hamda J. Twenge tomonidan tahlil qilingan "iGen" avlodi nazariyasi muhim o'rin tutadi [12; 13]. Bu yondashuvlar raqamli muhit o'quvchilar tafakkuri, muloqoti va ijtimoiy xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatishini asoslaydi. U. Begimqulovning ishlarida esa ta'lim tizimini raqamlashtirishning didaktik imkoniyatlari, elektron ta'lim resurslari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'quv jarayonidagi o'rni tahlil qilingan [8]. Ammo mavjud tadqiqotlarda raqamli vositalar orqali vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishning yaxlit pedagogik modeli yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha nazariy asoslar ancha boy bo'lsa-da, ularni raqamli ta'lim muhiti bilan integratsiyalashgan holda eksperimental tekshirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga, ya'ni tarbiyaviy mazmun, raqamli texnologiyalar va o'quvchi faoliyatini yagona pedagogik tizimda uyg'unlashtirishga qaratildi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot kvazi-eksperimental dizayn asosida tashkil etildi. Eksperiment Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ikkita umumta'lim maktabida 2024–2025-o'quv yili davomida olti oy mobaynida olib borildi. Tajriba guruhi 42 nafar, nazorat guruhi esa 50 nafar yuqori sinf o'quvchisidan iborat bo'ldi. Maktablar boshlang'ich shart-sharoitlar — o'quvchilar soni, akademik ko'rsatkichlar, o'qituvchilar malakasi va moddiy-texnik baza — bo'yicha "matching" usuli orqali moslashtirildi. Bu tajriba va nazorat guruhlar o'rtasidagi dastlabki farqlarni kamaytirishga xizmat qildi.

Tadqiqotda nazariy, empirik va matematik-statistik metodlardan foydalanildi. Nazariy metodlar doirasida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, sintez, taqqoslash, modellash va klassifikatsiyalash usullari qo'llanildi. Empirik metodlar sifatida pedagogik kuzatish, anketa, test, intervyu va pedagogik eksperimentdan foydalanildi. Natijalarni qayta ishlashda Styudent t-mezone, Pirson χ^2 mezone, Cohen effekti hajmi, Kronbax alfa koeffitsienti, o'rtacha qiymat va standart og'ish ko'rsatkichlari hisoblandi [14].

Vatanparvarlik sifatlarini baholash uchun uch komponentli diagnostik tizim ishlab chiqildi. Kognitiv komponent o'quvchilarning Vatan tarixi, milliy qadriyatlar, davlat ramzlari, fuqarolik burchi va ijtimoiy mas'uliyat haqidagi bilimlari orqali baholandi. Emotsional-qadriyatli komponent Vatanga munosabat, milliy g'urur, ma'naviy qadriyatlarga hurmat va ijtimoiy daxldorlik hissi asosida o'lchandi. Faoliyatli-xulqiy komponent esa o'quvchilarning real va raqamli muhitdagi

ijtimoiy faolligi, loyihalardagi ishtiroki, mas'uliyatli axborot tarqatishi hamda jamoaviy tashabbus ko'rsatish ko'nikmalari orqali aniqlandi.

Diagnostika vositalarining ishonchliligi Kronbax alfa koeffitsienti yordamida tekshirildi. Kognitiv test 20 ta savoldan, emotsional-qadriyatli anketa 20 ta mulohazadan, faoliyatli-xulqiy komponentni baholash vositasi esa pedagogik kuzatish varag'idan iborat bo'ldi. Har bir komponent bo'yicha past, o'rta va yuqori daraja mezonlari belgilandi. Diagnostik vositalar uchun $\alpha > 0,75$ ko'rsatkichining qayd etilishi ularning ichki izchilligi va tadqiqot maqsadiga muvofiqligini tasdiqladi.

Tajriba guruhida vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan mualliflik pedagogik modeli joriy etildi. Model maqsadli, mazmuniy, texnologik hamda natija-baholash bloklaridan iborat bo'lib, unda raqamli vositalar tarbiyaviy jarayonning yordamchi elementi emas, balki o'quvchi shaxsiga ta'sir ko'rsatuvchi faol pedagogik muhit sifatida talqin qilindi. Maqsadli blokda Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollik kabi sifatlar asosiy natijalar sifatida belgilandi. Mazmuniy blokda tarixiy xotira, milliy madaniyat, davlat ramzlari, mahalla va maktab hayotidagi ijtimoiy tashabbuslar, ekologik mas'uliyat hamda axborot madaniyati mavzulari qamrab olindi.

Texnologik blok besh bosqichli mashg'ulot ssenariysi asosida qurildi: motivatsion, axborot-bilish, emotsional-qadriyatli, faoliyatli-amaliy va refleksiv bosqichlar. Motivatsion bosqichda qisqa videolavhalar, muammoli savollar va hayotiy vaziyatlar orqali o'quvchilarda mavzuga nisbatan ichki ehtiyoj uyg'otildi. Axborot-bilish bosqichida multimedia taqdimotlari, elektron manbalar, virtual 3D-ekskursiyalar va interaktiv testlar yordamida zarur bilimlar mustahkamlandi. Emotsional-qadriyatli bosqichda raqamli storytelling, tarixiy shaxslar hayotiga oid qisqa videoroliklar, muhokama forumlari va bahs-munozaralar tashkil etildi. Faoliyatli-amaliy bosqichda o'quvchilar "Mening Vatanim — mening mas'uliyatim", "Mahallam tarixidan raqamli hikoya", "Davlat ramzlari: bilish va qadrlash" kabi mini-loyihalar ustida ishladilar. Refleksiv bosqichda esa elektron kundaliklar, onlayn so'rovlar va o'zini baholash varaqalari orqali shaxsiy xulosalar chiqarildi.

Modelni samarali joriy etish uchun bir nechta metodik shartlarga amal qilindi. Birinchidan, raqamli kontent milliy qadriyatlar mazmuni bilan uzviy bog'landi va tasodifiy axborotlar bilan to'ldirib yuborilmadi. Ikkinchidan, har bir raqamli topshiriq aniq tarbiyaviy maqsadga yo'naltirildi: o'quvchi faqat ma'lumot qabul qiluvchi emas, balki ijtimoiy mazmun yaratuvchi faol subyekt sifatida ishtirok etdi. Uchinchidan, raqamli xavfsizlik, media savodxonlik va axborot mas'uliyati tarbiyaviy jarayonning alohida elementlari sifatida kiritildi. Chunki vatanparvarlik sifatlarini shakllantirish nafaqat tarixiy bilim yoki hissiy munosabatni, balki raqamli makonda mas'uliyatli, madaniyatli va ijtimoiy foydali xulq-atvorni ham talab etadi.

Tadqiqot davomida o'qituvchilar uchun metodik yo'riqnoma, mashg'ulot ssenariylari, baholash mezonlari va raqamli topshiriqlar banki ishlab chiqildi. Har bir mashg'ulot yakunida o'quvchilarning faolligi, topshiriqlarni bajarish sifati, jamoaviy ishlashdagi roli va refleksiv xulosalari qayd etildi. Bunday yondashuv tarbiyaviy natijalarni faqat yakuniy test bilan emas, balki jarayon davomida kuzatiladigan xulqiy o'zgarishlar orqali ham baholash imkonini berdi. Shu jihatdan mualliflik modeli vatanparvarlik tarbiyasini deklarativ targ'ibot shaklidan chiqarib, uni o'quvchining kundalik ta'limiy va raqamli faoliyatiga singdirishga xizmat qildi.

Qo'shimcha metodik kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, raqamli storytelling va loyiha topshiriqlari o'quvchilarda eng yuqori qiziqish uyg'otdi. Bunday topshiriqlarda o'quvchilar oilaviy xotira, mahalla tarixi, hududiy qadriyatlar va taniqli yurtdoshlar hayoti haqida mustaqil ravishda materiallar to'pladilar hamda ularni raqamli hikoya, slayd, video yoki infografika shaklida taqdim etdilar. Natijada vatanparvarlik mavzusi mavhum shiorlar doirasida emas, balki o'quvchining shaxsiy tajribasi, oilasi, mahallasi va jamiyat hayoti bilan bog'liq mazmun sifatida namoyon bo'ldi. Bu esa, ayniqsa, faoliyatli-xulqiy komponentning o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aniqlovchi bosqichda tajriba va nazorat guruhlarining boshlang'ich tengligi statistik usullar yordamida tekshirildi. Styudent t-mezone bo'yicha hisoblangan qiymat $t = 0,085$ ($t_{\text{krit}} = 1,99$; $df = 90$), Pirson χ^2 mezone bo'yicha esa $\chi^2 = 0,012$ ni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkichlar ikki guruh o'rtasidagi boshlang'ich farq statistik jihatdan ahamiyatli emasligini ko'rsatdi ($p > 0,05$). Demak, keyingi bosqichlarda kuzatilgan o'zgarishlarni pedagogik model ta'siri bilan izohlash uchun metodologik asos mavjud.

Olti oy davomida tajriba guruhida mualliflik modeli asosida tarbiyaviy ishlar olib borildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy tarbiyaviy ishlar davom ettirildi. Yakuniy diagnostika natijalari ikki guruhda sezilarli darajada farqli dinamikani ko'rsatdi. Tajriba guruhida yuqori darajadagi o'quvchilar ulushi 14,3 foizdan 47,6 foizgacha oshdi. Nazorat guruhida esa mazkur ko'rsatkich 14,0 foizdan 18,0 foizgacha o'sdi. Bu farq raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlaridan tizimli foydalanish tarbiyaviy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

1-jadval. Tajriba va nazorat guruhlarida vatanparvarlik sifatlarini yuqori darajada shakllanganlik ko'rsatkichlari (%)

Guruh	Boshlang'ich kesim	Yakuniy kesim	O'sish, foiz punkt
Tajriba guruhi (n = 42)	14,3%	47,6%	+33,3 (3,3 barobar)
Nazorat guruhi (n = 50)	14,0%	18,0%	+4,0

Manba: muallif tomonidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari.



1-rasm. Vatanparvarlik sifatlari yuqori darajada shakllanganlik dinamikasi

Yakuniy kesim natijalarining ishonchliligi matematik-statistik usullar yordamida tekshirildi. Tajriba va nazorat guruhlarining o'rtacha ballari o'rtasidagi farq bo'yicha Student t-statistikasi $t = 8,21$ ni tashkil etdi ($t_{krit} = 1,99$; $df = 90$; $\alpha = 0,05$). $t = 8,21$ qiymati kritik qiymatdan ancha yuqori bo'lganligi sababli, ikki guruh o'rtasidagi yakuniy farq statistik jihatdan ahamiyatli deb topildi ($p < 0,05$). Pirson χ^2 mezon bo'yicha hisoblangan qiymat $\chi^2 = 18,7$ ni tashkil etib, kritik qiymat 5,99 dan yuqori bo'ldi. Bu darajalar taqsimotidagi farq ham statistik jihatdan ishonchli ekanini ko'rsatadi ($p < 0,001$). Cohen effekti hajmi $d = 1,72$ bo'lib, pedagogik tadqiqotlarda «katta effekt» sifatida talqin qilinadi [14].

Komponentlar kesimida tahlil qilinganda, tajriba guruhida vatanparvarlik sifatlarining barcha tarkibiy qismlari bo'yicha izchil o'sish kuzatildi. Kognitiv komponent bo'yicha yuqori daraja 18,0 foizdan 50,0 foizgacha, emotsional-qadriyatli komponent bo'yicha 16,7 foizdan 47,6 foizgacha, faoliyatli-xulqiy komponent bo'yicha esa 9,5 foizdan 45,2 foizgacha oshdi. Eng katta o'sish faoliyatli-xulqiy komponentda qayd etilgani modelning aynan amaliy faollik, ijtimoiy tashabbus va raqamli mas'uliyatni rivojlantirishga kuchli ta'sir ko'rsatganini ko'rsatadi.

2-jadval. Tajriba guruhida komponentlar bo'yicha o'sish dinamikasi

Komponent	Boshlang'ich kesim	Yakuniy kesim	O'sish
Kognitiv	18,0%	50,0%	+32,0 p.p.
Emotsional-qadriyatli	16,7%	47,6%	+30,9 p.p.
Faoliyatli-xulqiy	9,5%	45,2%	+35,7 p.p.

Manba: tajriba guruhida o'tkazilgan yakuniy diagnostika natijalari asosida tuzildi.

Natijalarning mazmuniy tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalar vatanparvarlik tarbiyasida faqat ko'rgazmalilikni kuchaytirish bilan cheklanmaydi. Ular o'quvchilarni axborot izlash, tahlil qilish, muhokama qilish, jamoaviy mahsulot yaratish va o'z pozitsiyasini asoslash jarayonlariga jalb etadi. Ayniqsa, virtual ekskursiyalar o'quvchilarda tarixiy-madaniy merosga qiziqishni kuchaytirgan bo'lsa, raqamli storytelling topshiriqlari shaxsiy tajriba va milliy qadriyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamladi. Geymifikatsiya elementlari esa topshiriqlarni bajarishga bo'lgan motivatsiyani oshirib, passiv tinglovchi pozitsiyasidan faol ishtirokchi pozitsiyasiga o'tishni rag'batlantirdi.

Nazorat guruhida statistik jihatdan sezilarli o'sish kuzatilmagani an'anaviy tarbiyaviy ishlar qisqa muddatda barqaror xulqiy o'zgarishlarni shakllantirish uchun yetarli emasligini ko'rsatadi. Bu an'anaviy usullarni rad etish emas, balki ularni raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlari bilan boyitish zarurligini anglatadi. Demak, zamonaviy vatanparvarlik tarbiyasi dars, sinfdan tashqari faoliyat, raqamli platformalar, media savodxonlik va ijtimoiy loyiha elementlari o'zaro bog'langan tizim sifatida tashkil etilgandagina kutilgan natijani beradi.

Tadqiqotda olingan natijalar avvalgi nazariy qarashlarni amaliy jihatdan boyitadi. Xususan, vatanparvarlikning kognitiv va hissiy jihatlari bilan bir qatorda, faoliyatli-xulqiy ko'rinishlarini ham baholash zarurligi tasdiqlandi. Raqamli muhitda o'quvchining mas'uliyatli axborot almashishi, ijtimoiy foydali kontent yaratishi, tarixiy xotira va milliy qadriyatlarga oid materiallarni targ'ib qilishi vatanparvarlik sifatlarining zamonaviy namoyon bo'lish shakllari sifatida qaralishi mumkin.

XULOSA

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari yuqori sinf o'quvchilarida vatanparvarlik sifatlarini raqamli ta'lim muhiti sharoitida shakllantirishga qaratilgan mualliflik pedagogik modeli va metodikasining samaradorligini empirik jihatdan tasdiqladi. Tajriba guruhida yuqori darajadagi o'quvchilar ulushi 6 oy davomida 14,3 foizdan 47,6 foizgacha oshdi. Nazorat guruhida esa o'sish 4,0 foiz punkt bilan cheklandi. Yakuniy natijalar Student t-mezon, Pirson χ^2 mezon va Cohen effekti hajmi orqali statistik jihatdan asoslandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi vatanparvarlik tarbiyasi va ta'limni raqamlashtirish jarayonlarini yagona pedagogik tizimda birlashtiruvchi model ishlab chiqilgani hamda uning samaradorligi eksperimental ravishda tekshirilganida namoyon bo'ladi. Modelning amaliy ahamiyati shundaki, u umumta'lim maktablari, sinf rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ullar va fan o'qituvchilari faoliyatida qo'llash mumkin bo'lgan metodik vosita sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha mashg'ulotlarga raqamli storytelling, virtual ekskursiya, loyiha topshiriqlari va refleksiv baholash elementlarini muntazam kiritish; o'quvchilarning raqamli makondagi mas'uliyatli xulqini tarbiyaviy natija mezonlaridan biri sifatida baholash; o'qituvchilar uchun vatanparvarlik tarbiyasiga yo'naltirilgan raqamli resurslar bankini yaratish; tarbiyaviy ishlar monitoringida kognitiv, emotsional-qadriyatli va faoliyatli-xulqiy komponentlarni kompleks baholash. Kelgusida mazkur modelni ma'naviy-axloqiy, fuqarolik, ekologik va mehnat tarbiyasi yo'nalishlariga moslashtirish bo'yicha alohida tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son *"Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va «Vatan tayanchi» harakatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”*gi qarori. – Toshkent, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasining *"Ta'lim to'g'risida”*gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2020.
3. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – Toshkent, 2020.
4. Quronov M. Vatanparvarlik tarbiyasining nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 256 b.
5. Mahkamov U. Yoshlarda milliy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 198 b.
6. Mavlonova R. O'zbek pedagogikasi: tarix va zamonaviylik. – Toshkent: Sharq, 2020. – 312 b.
7. Taylaqov N. Maktab o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 224 b.
8. Begimqulov U. Sh. Ta'lim tizimini raqamlashtirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2022. – 280 b.
9. Сухомлинский В. А. Рождение гражданина. – М.: Молодая гвардия, 1971. – 336 с.
10. Дацкий В. А. Патриотическое воспитание учащихся старших классов. – М.: Педагогика, 2006. – 240 с.
11. Солдатенков А. Д. Патриотическое воспитание молодежи. – М.: Педагогика, 2003. – 188 с.
12. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants // On the Horizon. – 2001. – Vol. 9, No. 5. – P. 1–6.
13. Twenge J. iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious. – New York: Atria Books, 2017. – 352 p.
14. Cohen J. Statistical Power Analysis for the Behavioral Sciences. – 2nd ed. – New York: Routledge, 1988. – 567 p.
15. Xamidov A. A. Yuqori sinf o'quvchilarida vatanparvarlik sifatlarini raqamli ta'lim muhitida shakllantirish: PhD dissertatsiyasi. – Toshkent, 2026.